

O‘ZBEKISTONDA RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK HUQUQINING KAFOLATLANISHI

Bozorova Gulchexra Nazarovna

Bobonazarova Nafisa Tolibovna

Navoiy Davlat Konchilik Texnologiyalar Universiteti
akdemik litseyi o‘qituvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqlarining kafolatlanishi, uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, amalga oshirish mexanizmlari hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashdagi davlatning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, fuqarolik institutining mohiyati, fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish tartibi hamda fuqarolarning huquqiy himoyasi masalalari yoritiladi. Maqolada fuqarolik huquqlarini yanada mustahkamlashga doir taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik huquqi, Konstitutsiya, fuqarolik, huquqiy davlat, huquq va erkinliklar, kafolat, fuqarolik instituti, davlat himoyasi.

ГАРАНТИЯ ГРАЖДАНСКИХ ПРАВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Бозорова Гульчехра Назаровна

Бобоназарова Нафиса Толибовна

Преподаватели академического лицея Навоийского государственного горно-технологического университета

Аннотация. В данной статье анализируются гарантии гражданских прав в Республике Узбекистан, их конституционно-правовые основы, механизмы реализации, а также роль государства в обеспечении прав и свобод граждан. Также рассматриваются сущность института гражданства, порядок его приобретения и утраты, а также вопросы правовой защиты граждан. В работе представлены выводы и предложения по дальнейшему укреплению гражданских прав.

Ключевые слова: Гражданское право, Конституция, гражданство, правовое государство, права и свободы, гарантии, институт гражданства, государственная защита.

GUARANTEE OF CIVIL RIGHTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bozorova Gulchekhra Nazarovna

Bobonazarova Nafisa Tolibovna

Teachers of the Academic Lyceum at Navoi State Mining Technological University

Abstract. This article analyzes the guarantees of civil rights in the Republic of Uzbekistan, their constitutional and legal foundations, implementation mechanisms, and the role of the state in ensuring citizens' rights and freedoms. It also examines the essence of citizenship, procedures for acquiring and losing it, and issues of legal protection of citizens. The study provides conclusions and recommendations for further strengthening civil rights.

Keywords: Civil law, Constitution, citizenship, rule of law, rights and freedoms, guarantees, institution of citizenship, state protection.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqlarining kafolatlanishi demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlaydi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida fuqarolik huquqlarini himoya qilish va ularni kafolatlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lib, har bir fuqaroning huquq va erkinliklari qonun bilan himoya qilinishi belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, sud-huquq tizimining takomillashuvi, fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini oshirish, hamda davlat organlarining javobgarligini kuchaytirish fuqarolik huquqlarining amalda ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi fuqarolik huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, fuqarolik huquqlarining kafolatlanishini huquqiy, tashkiliy va institutsional jihatdan chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqlarining kafolatlanishi, ularning huquqiy asoslari, amalga oshirish mexanizmlari hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

Fuqarolik huquqi insonning eng muhim shaxsiy va siyosiy huquqlaridan biridir. Fuqarolik maqomidagi shaxs davlat homiyligi va himoyasida bo'ladi. Fuqaro va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ularning o'zaro huquq va majburiyatlarida aks etadi. Fuqarolikni olgan shaxs o'z davlati hududida ham, uning chegarasidan tashqarida ham himoya va homiylik ostida bo'ladi, fuqarolar uchun belgilangan barcha huquqlardan to'liq foydalanadi. O'z navbatida, fuqarolar davlatining qonunlariga rioya qilishi, fuqarolik burch va majburiyatlarini bajarishi shart.

Fuqarolik-shaxsning muayyan davlat bilan doimiy huquqiy aloqasi. Bu shaxs va davlatning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Shaxs fuqarolikka ega bo'lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e'tirof etadi, ularning amalga oshirishini ta'minlash choralari ko'radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko'rsatadi.

Fuqaro nafaqat hokimiyat organlariga o'z vakillini saylash, balki ushbu organlarga o'zi saylanish huquqiga ham ega bo'lishi mumkin. Fuqaroligi bo'lmagan shaxs bunday huquqqa ega emas. Agar harbiy xizmatni o'tash fuqarolar uchun fuqarolik burchi va majburiyati bo'lsa, bunday majburiyat fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan qonun qo'llanmaydi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar partiyalarga a'zo bo'lishi, davlat organlarida rahbarlik lavozimlarini egallashi, saylovlarda qatnashishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga quyidagi hollarda ega bo'lishi mumkin:

- tug'ilish bo'yicha, ya'ni bola qayerda tug'ilishidan qat'i nazar, agar bola tug'ilgan vaqtda ota-onasi (yoki ota-onasidan biri) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa;
- tug'ilgan joyidan qat'i nazar, bola asrab olinsa;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi va tiklanishi natijasida;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida VI bob, 22, 23, 24-moddalari "Fuqarolik" deb nomlanib, O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini himoya qilishi va ularga homiylik qilishini kafolatlab quyibdi. O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarga ega bo'lganlikdan qat'i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas. Davlat xorijda yashoyotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet

el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar deb qat'iy mustahkamlab qo'yilgan.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolarini o'zi himoya qiladi va uni yaxshi yashashi uchun barcha shart-sharoitlarini yaratib beradi. Davlat fuqaroning bilim olishi, dam olishi, yashash huquqi, fikrlash, so'z e'tiqod erkinligi, hamma uchun vijdon erkinligi, mulkdor bo'lish huquqi, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, ishsizlikdan himoyalaniish, dam olish huquqiga, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va shu kabi bir qancha huquqlaridan foydalanishi uchun barcha imkoniyatlarini yaratib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2021.
- 3.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2021.
- 5.Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent: TDYU, 2020.
- 6.Human Rights: Theory and Practice.– Oxford University Press, 2019.